

YANGI O'ZBEKISTONDAGI MADANIY-MA'RIFIY ISLOHOTLAR

КУЛЬТУРНЫЕ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ В НОВОМ
УЗБЕКИСТАНЕ

CULTURAL AND EDUCATIONAL REFORMS IN NEW UZBEKISTAN

Oqyo'lova Gulnoza Miraxmad qizi**Biologiya yo'nalishi 1-bosqich****Email: sardorbekoqyolov779@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14440098>**

Annotatsiya: Ushbu maqola Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviy-madaniy islohotlar masalasiga bag'ishlanib, unda mamlakatimizda ushbu sohada erishilgan yutuq va islohotlar tahlil etilgan. Shuningdek, mamlakatimizda kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan madaniy-mar'rifiy islohotlar masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Madaniyat, Uchinchi Renessans, taraqqiyot, strategiyasi, ma'rifat, komunikatsiya, tashabbus.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросу духовных и культурных реформ в развитии Нового Узбекистана и анализирует достижения и реформы, достигнутые в этой области в нашей стране. Также освещен вопрос культурно-образовательных реформ, которые планируется реализовать в нашей стране в будущем.

Ключевые слова: Культура, Третье Возрождение, развитие, стратегия, просвещение, коммуникация, инициатива.

Abstract: This article is devoted to the issue of spiritual and cultural reforms in the development of New Uzbekistan, analyzing the achievements and reforms achieved in this area in our country. It also covers the issue of cultural and educational reforms planned to be implemented in the future in our country.

Key words: Culture, Third Renaissance, development, strategy, enlightenment, communication, initiative.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan madaniy-ma'rifiy islohotlar O'zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masala xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev gapirar ekanlar, quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim". Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning orzumaqsadlarini o'zida ifoda etib, butun dunyoda yuksak e'tirof etilmoqda. Shundan kelib chiqib, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etish har bir fuqaroning burchi va mas'uliyatiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / LITERATURE REVIEW)

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-madaniy islohotlarimiz quyidagi masalalarni o'z oldiga dolzarb vazifa sifatida qo'ymoqda:

birinchidan, mamlakatimizda ma'naviy-madaniy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarini shakllantirish;

ikkinchidan, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, badiiy va amaliy ijodiy jamoalar, havaskorlik guruhlarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda ijodiy jarayonni tizimli ravishda boyitib borish;

uchinchidan, bolalarni to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillarni o'rganish va "nutq madaniyati" bo'yicha kurslarni tashkil etish, xalq ijodiyotining barcha janr va yo'nalishlari, havaskorlik san'ati va nomoddiy madaniy merosni keng targ'ib qilish hamda ularni asl holicha kelajak avlodga yetkazish;

to'rtinchidan, adabiyot hamda san'at arboblari va professional ijodiy guruhlar bilan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlar tashkil etib, ular ishtirokida aholi, xususan, yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o'tkazish;

beshinchidan, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining tuman (shahar) miqyosidagi festivallarini o'tkazish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash;

oltinchidan, ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish, ijtimoiy-madaniy sohada yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha ularga pulli xizmatlar ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonini imzoladi. Ushbu farmonning qabul qilinishi xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarga alohida to'xtalib o'tadi: "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ham g'oyat muhim ahamiyatga ega".

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION)

Shundan kelib chiqqan holda, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" masalasiga bag'ishlanib, Yangi O'zbekistonda taraqqiyoti strategiyasida ma'naviy-madaniy islohotlar istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan [3]. Mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar O'zbekistonning yangi Renessansiga – yangi Uyg'onish davriga mustahkam poydevor bo'lishi nazarda tutilgan. Unda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini mustahkalash, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, sohada ilmiy yondashuvni keng joriy etish, ilg'or tashabbuslarni qo'llabquvvatlash bo'yicha aniq choralar belgilandi.

Jumladan, Yangi O'zbekistonda taraqqiyoti strategiyasida 71-maqсадida ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan —Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish masalasi belgilanib, unda quyidagi ustuvor vazifalar belgilab olingan:

- "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini amalga oshirish.
- Aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiyma'rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish.
- Targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish hamda ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish.
- O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llabquvvatlash.
- Oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash.
- Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish.
- "Mahalla — tuman — viloyat — respublika" prinsipi asosida hududlar kesimida ijtimoiy-ma'naviy muhitni optimallashtirish xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish.
- Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish.
- Maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash.
- Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish.
- "Yoshlar — Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" shiori ostida "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans" g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash.

XULOSA: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, taraqqiyot strategiyasining 72-maqсадida mamlakatimiz aholisiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda sohada yagona boshqaruv tizimini joriy etish belgilab olingan. Yangi O'zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hozirgi davr talabi va taqozosi, jamiyatimizning harakatlantiruvchi kuchlari va rivojlanish omillarini belgilaydigan faoliyat dasturidir.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi// "Xalq so'zi" gazetasi, 2022 yil 21 dekabr, №272 (8334)
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston – strategyasi. –T.: "O'zbekiston", 2021. –B.267.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni//<https://lex.uz/docs/-5841063>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni//<https://lex.uz/docs/-5841063>
5. Karimov, X. (2024). HISTORY AND CULTURAL LIFE OF THE KYRGYZ NATIONS INHABITANT THE FERGHANA VALLEY (1991-2023, ON THE EXAMPLE OF ANDIJAN, NAMANGAN, FERGANA REGIONS). *Interpretation and researches*, 2(5 (27)).
6. Sobirovich T. B. National and universal principles of democracy //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 334-338
7. <http://www.ziynet.uz>
8. <http://www.wikipedia.ru>
9. <http://www.guldu.ru>

